


## X. KICHIK TADBIRKORLIK

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, ularni erkin faoliyat yuritishi uchun qulay sharoit va muhit yaratish borasida amalga oshirilayotgan tadbirlar davomida 2023- yil 1-oktabr holatiga ro‘yxatga olingan jami kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlarining soni 35 843 tani tashkil qildi. (2022- yil 1- oktabrga nisbatan 109,0 % ga ko‘pdir).

### Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari sonining 2023- yil 1- oktabr holatiga iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi



■ Sanoat ■ Savdo ■ Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi ■ Qurilish ■ Boshqalar


Eng ko‘p kichik biznes subyektlari savdo tarmog‘ida (jami tashkil etilgan subyektlarning 36,8 %), sanoat sohasida (23,2 %), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida (9,5 %) va qurilishda (7,4 %) tashkil etilgan.

**Hududlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar**

	2022- yil yanvar-sentabr	2023- yil yanvar-sentabr
<b>Viloyat bo'yicha jami</b>	<b>4 108</b>	<b>3 614</b>
Namangan shahar	1 278	909
Mingbuloq	168	254
Kosonsoy	214	215
Namangan	256	203
Norin	275	203
Pop	212	252
To'raqo'rg'on	241	302
Uychi	243	231
Uchqo'rg'on	347	344
Chortoq	307	291
Chust	317	224
Yangiqo'rg'on	250	186

2023-yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar hududlar bo'yicha eng ko'p Namangan shahrida – 909 ta, Uchqo'rg'on tumanida – 344 ta, To'raqo'rg'on, tumanida – 302 ta, Chortoq tumanida – 291 ta, Mingbuloq tumanida – 254 ta, Pop tumani – 252 ta, Uychi tumani – 231 ta, Chust tumani – 224 ta, Kosonsoy, Namangan, Norin tumanlarida bu ko'rsatkich o'rta darajani tashkil etgan. Eng past ko'rsatkich Yangiqo'rg'on tumanida 186 tani tashkil etdi.

**2023- yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, %da**




2023- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulushi Namangan shahrida – 25,2 %, Uchqurg'on tumanida – 9,5 %, To'raqo'rg'on tumanida – 8,4 %, Chortoq tumanida -8,1 %, Pop tumanida -7,0 %, Mingbuloq tumanida -7,0 %, Uychi tumanida – 6,4 % va Chust tumanida – 6,2 % tashkil etdi.

2023- yil yanvar- sentabr oylarida yalpi hududiy mahsulotning 72,5 % (2022- yil yanvar- sentabr oylarida 72,3 %) kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarildi.

Kichik biznes subyektlari tomonidan 179,3 mln. AQSH dollari (umumiy eksport hajmining 43,4 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, 418,2 mln. AQSH dollari (umumiy import hajmining 68,9 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) import qilindi.

**Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning  
iqtisodiyotdagi ulushi**  
(2023- yil yanvar-sentabr oylari holatiga, % da)



**Kichik tadbirkorlik subyektlari (ish, xizmat) hajmi**  
(2023- yil yanvar-sentabr)

Iqtisodiy faoliyat turlari	Kichik tadbirkorlik subyektlari (ish, xizmat) hajmi, mlrd. soʻm	Jami hajmga nisbatan ulushi, % da
Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi	10 618,0	96,4
Sanoat	7 064,6	47,6
Qurilish	4 888,3	90,8
Chakana savdo	12 136,6	93,8
Yuk tashish, mln. tonna	21,5	93,9
Yoʻlovchi tashish, mln. kishi	322,9	97,5

2023- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning  
hududlar kesimida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi,  
(%da)

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiyalar
<b>Viloyat bo'yicha jami</b>	<b>47,6</b>	<b>90,8</b>	<b>65,7</b>	<b>65,6</b>
Namangan shahar	58,5	84,9	44,8	60,9
Mingbuloq	37,0	100,0	83,4	36,3
Kosonsoy	43,7	87,1	82,3	61,0
Namangan tuman	74,5	100,0	81,7	71,8
Norin	90,8	100,0	82,5	76,7
Pop	72,4	66,0	72,3	80,2
To'raqo'rg'on	9,8	94,8	74,8	54,3
Uychi	68,2	90,4	82,8	67,9
Uchqo'rg'on	28,3	100,0	78,3	83,8
Chortoq	100,0	100,0	79,6	88,3
Chust	39,2	100,0	77,2	67,1
Yangiqo'rg'on	100,0	98,7	85,8	85,8

Hududlar bo'yicha **Sanoat** sohasining yuqori ulushini Chortoq, va Yangiqo'rg'on tumanlari (100,0 %) hamda Norin (90,8 %) tumanlari tashkil etdi.

**Qurilishda** – Mingbuloq t, Namangan t, Norin t, Uchqo'rg'on t, Chortoq t, Chust t 100,0 %, tumanlari tashkil etdi.

**Xizmatlar sohasida** – Yangiqo'rg'on (85,8 %), Mingbuloq (83,4 %), Uychi (82,8 %), Kosonsoy (82,3 %), tumanlari tashkil etdi.

**Investitsiyada** – Chortoq (88,3 %), Yangiqo'rg'on (85,8 %), Uchqo'rg'on (83,8 %), Pop (80,2 %) Norin (76,7 %), tumanlarida yuqori ulushlarni tashkil etdi.